VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

YOSHLARGA TA’LIM-TARBIYA BERISH JARAYONINI YUKSALTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Teshaboyev Alixo'ja Ibragimovich
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. Stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mustaqillik yillarida respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi.

Kalit so‘zlari

Bozor, iqtisodiyot, mulkchilik, erkin raqobat, mamlakat, jahon, raqobatdosh, intellektual.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКОЙ ОСНОВЫ ПРОЦЕССА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В годы независимости система образования и воспитание зрелого поколения в республике стали главными приоритетами государственной политики.

Ключевые слова

Рынок, экономика, собственность, свободная конкуренция, страна, мир, конкурентный, интеллектуальный.

IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS FOR THE PROCESS OF EDUCATION AND UPBRINGING OF YOUNG PEOPLE

Abstract

During the years of independence, the education system and the upbringing of the mature generation in the republic became the main priorities of state policy.

Key words

Market, economy, property, free competition, country, world, competitive, intellectual.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanishi erkin raqobatga asoslanishi va ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish sub’ektlarini qanday mulkchilik shakllariga asoslanishidan qat’i nazar erkin raqobat asosida har bir mamlakatni jahon bozorida raqobatdosh bo‘lishini ta’minlash maqsadida intellektual jarayonni rivojlantirish ularning asosiy muammolariga aylanadi. Bu esa o‘z navbatida bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini intellektual darajalarini oshirishni ta’minlash uchun bozor talablariga asoslangan holda oliy ma’lumotli malakali mutaxassislarni tayyorlash dolzarb hisoblanadi. Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev mamlakatni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasida “Ilmiy muassasalarning moddiy-texnik bazasini ilg‘or xorijiy markazlar darajasida va olimlar talablariga muvofiq sezilarli ravishda mustahkamlash kerak” [1.] deb ta’kidlab o‘tdi.

Bundan ko‘rinib turibdiki milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun javob bera oladigan intellektual oliy malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida malakali professor - o‘qituvchilar tomonidan berilgan, o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar Respublika innovatsiya yangiliklari ijtimliy-iqtisodiy jihatdan jahon xo‘jaligi bozorida raqobatdoshligini ta’minlaydi. Demak, milliy iqtisodiyotni innovatsiyalashtirish asosida mamlakatimizni ilg‘or mamlakatlar qatoriga olib chiqish mumkin. Buni eng rivojlangan AQSh, Yaponiya, Fransiya, Angliya, Yevropa ittifoqi davlatlari misolida ko‘rish mumkin [2].

O‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentligini rivojlantirish shaxsning mutaxassisligi bo‘yicha kasbiy kamol topishi, rivojlanishi o‘z mohiyatiga ko‘ra uzluksiz jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. [3].

O‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentligini rivojlantirish kasbiy yetuklik insonning muhim davrida kasbiy kamol topishi, yuksalish g‘oyasining qaror topishida (14-17 yosh)dan boshlanadi. Tashkilotchilik kompetenti kasbiy faoliyatda bizningcha, yakuniy qism jarayonini (55-60 yosh)gacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrlar davomida kompetentlik xususiyati shaxslarning shakllanish va rivojlanish jihati ichki va tashqi olam o‘zgarishida o‘z faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi.

O‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha, ma’lumki, kasbiy tajriba jarayonida bilim, ko‘nikma va malakalarning integratsiyalash sifatida o‘z aksini topadi. [4].

Tashkilotchilik kompetentlikda kasbiy-ijobiy faoliyat ko‘nikmalarining o‘zlashtirilishi amaliy ko‘nikma va malakalarning integratsiyalash, mutaxassislik sifatida o‘z faoliyatini samarador usul va vositalarini ishlab chiqishni shakllantiradi. Shu bilan birga kasbiy ijodkorlikda ta’lim muassasalarida nafaqat pedagog xodimlar, balki o‘quvchilarning faoliyatini ham muvofiqlashtirish, davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda motivlashtirish zarur hisoblanadi [5]. Bu o‘rinda o‘qituvchilarning tashkilotchilik kompetentligini rivojlantirish ijodiy tafakkurni yuksalishi va kreativ xarakterga ega shaxsiy sifatlarning darajasida isloh etishni talab etadi.

Hozirgi zamonaviy pedagogik bilimlar tasnifida aynan mutaxassislar kompetensiyasi o‘z dolzarbligi muhim hisoblanadi. Harakatchanlik, tashabbuskorlik pedagogning o‘z professional maqsadini anglatadi. Tashkilotchilik faoliyatida o‘qituvchi kompetensiyasini shakllantirish zaruratini taqozo etadi. [6].

Mazkur tushunchaning ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning qariyb barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompetensiya turli sohalar mutaxassislari faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo‘lib, uning kelib chiqish tarixi boshqaruv nazariyasi, ish jarayonini ishlab chiqarish maqsadiga adekvat va to‘liq mos tarzda to‘g‘ri boshqarish asosida uning samaradorligi so‘zsiz ta’minlash, menejmentlik amaliyoti, ishlab chiqarish jarayonidagi yuqori va pastki xodimlar mehnat muomalasini qo‘yilgan maqsad va samaradorlikka yo‘naltirish bilan

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, konkret xodim kompetensiyasi o‘z faoliyati va o‘z shaxsiy resurslarini samaradorlikka yo‘naltira olish qobiliyati bilan hamohangdir [7].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz kerakki; mustaqillik yillarida respublikada ta’lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari darajasiga ko‘tarildi. Biroq, o‘tkazilgan tahlillar ta’lim sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi shuni ko‘rsatadiki, yoshlarning ongli rivojlanishi, faoliyat turlari asosida tashabbuskorligi va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, qaratilgan muloqot doirasida katta yoshdagilar va tengdoshlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ochishga qaratilgan asosiy jihatlardan biridir.Yoshlarga ta’lim-tarbiya berish jarayonini yuksaltirishning metodologik asoslarini takomillashtirish, innovatsion usul va vositalarini yaratish, ushbu tizimni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Ta’lim-tarbiya jarayonida ilmiylik, muammolilik va natijani oldindan ko‘ra olish; tizimlilik; izchillik; insonparvarlik; maqsadga yo‘naltirilganlik, uzluksizlik va uzviylik; yoshlarning shaxsiy va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; faoliyatda tarbiyalash; nazariyaning amaliyot bilan aloqasi; yoshlar ma’naviy madaniyatini shakllantirishda fanlararo, mavzulararo aloqadorlikni ta’minlash; ta’lim-tarbiya jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyani joriy etish; shaxslararo munosabatlarning o‘zaro birligi va bog‘liqligi; faoliyat va munosabat uzviyligi; o‘zaro tarbiyaviy ta’sir va faol faoliyat o‘rtasidagi bog‘lanish kabi tamoyillarga amal qilish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 46.
2. Режапов Х.Х. Олий таълим тизимида хориж тажрибаси ва улардан фойдаланиш имкониятлари. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 2, март-апрель, 2017 йил. – Б. 3-11.
3. Кадирова Х.Б.ОСОБЕННОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СЕМЕЙ//ФЭн-наука. 2015. № 10 (49). С. 11-12

4. Кадирова Х. Б. Научное наследие мыслителей центральной Азии //Вестник магистратуры. – 2015. – №. 2-2 (41). – С. 16-20.

5. Джураев Р. Турғунов С. Таълим менежменти. Ворис-нашриёт. Тошкент. 2006. – Б 138.
6. Kadirova K. PRESERVATION OF LANGUAGE, HISTORY AND NATIONAL IDENTITY IN THE AGE OF GLOBALISM // Science and innovation. – 2022. – Т. 1 (B7), 1363-1367 8.

7. Кадырова М.Т. Компетентлик ёндашуви назарияси ва унинг педагогик мазмунига доир қарашлар // Молодой ученый. 2020. № 43 (333). – С. 343-345.
8.Kadirova Y. LOVING THE COUNTRY IS FAITHFUL //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. B4. – С. 420-423.

9.BUVABAEVNA K. Y. LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA: LEGAL BASIS OF FORMATION OF CIVIC CULTURE IN STUDENTS KADIROVA YAKITJAN BUVABAEVNA //Journal of Information Computational Science. – 2021. – №. 1.

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023

10. Y Kadirova, K Kadirova SOCIAL ACTIVITY OF PEDAGOGUE IN SOCIO-POLITICAL LIFE OF SOCIETY//Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B3. – Pp. 417-421

11. Buvabaevna K. Y. Issues of Civil Literacy Development in the Education System //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 5477-5489.

12. Kadirova, Y. B. (2023). TA'LIM JARAYONIDA 'QITISHNING INTEGRATIV TEXNOLOGIYALARINI ISHLAB CHIQISH VA AMALIYOTIDA QO'LLASH. Innovations in Technology and Science Education, 2(10), 541-548.

13. Buvabaevna, K. Y., & named after Nizami, T. D. P. U. (2021). THE ROLE OF FAMILY AND EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN INCREASING THE CIVIL LITERACY OF STUDENTS. MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS, 140.

14. Кадирова, Х. Б. (2023). ХАЛҚ ПСИХОЛОГИЯСИДА ИДЕНТИКЛИК НИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ. *JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH*, *6*(2), 203-208.

15. Kadyrova, H. (2017). Social and cultural identity of the Karakalpak people. In *ROLE OF NONMATERIAL FACTORS IN ENSURING THE SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL CONDITION OF A SOCIETY* (pp. 69-72).

16. Kadyrova, H. (2016). TRADITIONS OF MORAL EDUCATION IN MODERN FAMILIES KARAKALPAK. *SCOPE ACADEMIC HOUSE B&M PUBLISHING*, 40

17. Buvabaevna, K. H. (2023). VALUE OF DEVELOPING MEDIA LITERACY, MEDIA EDUCATION, INFORMATION CULTURE IN UZBEKISTAN. *Science and Innovation*, *2*(9), 23-27

18.A'zamxonov S.X. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari https://bestpublication.org/index.php/iq/article/view/1106 vol. 2 no. 22 (2022): ijodkor o'qituvchi 381-386-bet

WORDLY KNOWLEDGE